

MOLIYA TIZIMI VA UNING FUNKSIYALARI

Yo'ldosheva Munira Ikrom qizi

SamISI Bank-Moliya xizmatlari fakulteti

Ilmiy rahbar: Meliyev Azimjon Murodullo o'g'li

Annotatsiya: Moliya tizimi – bu davlat, xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholining moliyaviy munosabatlarining yig'indisi bo'lib, iqtisodiyotning barqaror faoliyatini yurituvchi eng muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi. Moliya tizimi orqali iqtisodiyotning ya'ni mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi boshqariladi hamda resurslar qayta taqsimlanadi va makroiqtisodiy muvozanatni ushlab turish imkonini yaratadi. Moliya tizimining asosiy funksiyalari bular: taqsimlash funksiyasi, nazorat funksiyasi, rag'batlantirish funksiyasi, ta'minlash funksiyasi, barqarorlashtirish funksiyalaridan iborat. Bu funksiyalar davlat, korxonalar va aholining moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun kerak. Ular iqtisodiyotning to'g'ri ishlashini, pul oqimining tartibi va ijtimoiy himoya tizimini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: Moliya tizimi, Moliya funksiyalari, Taqsimlash funksiyasi, Nazorat funksiyasi, Rag'batlantirish funksiyasi, Ta'minlash funksiyasi, Barqarorlashtirish funksiyasi, Moliyaviy resurslar, Davlat moliyasi, Soliq tizimi, Byudjet xarajatlari, Makroiqtisodiy barqarorlik, Moliyaviy siyosat, Iqtisodiy o'sish, Moliyaviy boshqaruv.

Moliya tizimi degani bu davlat, korxonalar tashkilotlar va aholi o'rtasida shakllanadigan pul munosabatlari majmui bo'lib, iqtisodiyotni barqaror boshqarishning asosiy mexanizmlaridan biridir. Moliya tizimi tarkibiga davlat moliyasi, byudjetlararo munosabatlar, korxona moliyasi, bank-moliya sektori, sug'urta bozori, investitsiya va fond bozorlari kiradi. Bu bo'g'inlarning barchasi o'zaro uyg'un holda ishlagan taqdirda iqtisodiy o'sish, kapitalning samarali taqsimlanishi va bozor makroiqtisodiy muvozanat ta'minlanadi. Zamonaviy sharoitda moliya tizimi nafaqat pul harakatini boshqaradi balki iqtisodiy siyosatning muhim instrumentiga aylanmoqda.

Moliya tizimining asosiy funksiyalari – taqsimlash, nazorat, barqarorlashtirish, rag'batlantirish, va regulativ funksiyalardir. Taqsimlash funksiyasi orqali milliy daromad davlat, korxona va aholilar o'rtasida qayta taqsimlanadi, iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlariga mablag'lar yo'naltiradi. Nazorat funksiyasi moliyaviy jarayonning qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi va samaradorligini ta'minlaydi. Barqarorlashtirish funksiyasi esa iqtisodiy o'sishning izchil bo'lishi, inflyatsiyaning nazorat qilinishi va moliyaviy xavflarining kamayishi uchun xizmat qiladi. Shuningdek

rag'batlantirish funksiyasi korxonalarni innovatsiyalar, investitsiyalar, raqobatbardoshlik va samaradorlikka undaydi.

Moliya tizimining samarali ishlashi davlatning iqtisodiy siyosatini muvoffaqiyatli amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Davlat moliyasi byudjet tizimi orqali ijtimoiy himoya, sog'liqni saqlash, ta'lim va infratuzilma loyihalarini moliyalashtiradi, bu esa jamiyat farovonligini oshiradi. Bank va moliya institutlari kapital oqimini tezlashtirib, tadbirkorlikni rivojlantiradi va yangi ish o'rinlari yaratilishiga ko'maklashadi. Fond bozori esa investitsion jarayonlarni chuqurlashtirib, iqtisodiyotda uzoq muddatli moliyaviy resurslar shakllanishini ta'minlaydi. Natijada moliya tizimi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga be'vosita ta'sir ko'rsatadigan strategik tizim sifatida faoliyat yuritadi.

Xulosa

Demak xulosa qiladigan bo'lsak moliya tizimi iqtisodiyotning barqaror ishlashi, resurslarning samarali taqsimlanishi va davlat moliyaviy siyosatining muvofaqiyatli amalga oshirilishida muhim o'rin tutadi. Uning muhim funksiyalari mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy mexanizmlardir. Moliya tizimining izchil faoliyati esa xalq farovonligi va iqtisodiy o'sishining kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov S. Va boshqalar "Moliya" darsligi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi "Moliya tizimi va davlat byudjeti" rasmiy metodologik qo'llanma. Toshkent-2022
3. Samuelson P. Nordhaus W "Economics"- McGraw-Hill, 2020
4. Mishkin F "The Economics of Money , Banking and Financial Markets"- Person 2019
5. Krugman P. WELLS R. "Macroeconomics" – Worth Publishers, 2018
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va PF farmonlari – Moliya tizimini isloh qilishga doir normativ-huquqiy manbalar (2020-2024)